



Shuhratjon A. XAYDARALIYEV,

DSc, professor v.b. Namangan davlat universiteti, Namangan, O'zbekiston

Email: shuxrathaydaraliyev@gmail.com

Siyosiy fanlari doktori, professor R.Jo'rayev taqrizi asosida

NEW PROSPECTS FOR COOPERATION IN CENTRAL ASIA

Annotation

This article reflects the analysis of new directions, new approaches, initiatives, as well as their results and effectiveness in the foreign policy of the New Uzbekistan in the period from 2017 to 2025. The initial goals and objectives of the assemblies, a completely new form of diplomacy and interaction in the Central Asian region, are revealed. Our President, SH.M.Mirziyoyev, The policy of political equality, stability and good neighborliness, implemented under the leadership of Mirziyoyev, is carried out not only from the point of view of Central Asia, but also taking into account the shortcomings of neighboring regions.

Key words: Consultative meeting, BRICS plus, Geopolitics, UN, OSCE, EU, CIS, "the soul of Central Asia", "Uzbek model", "Synchronous development", "Kazakhstan model".

НОВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ СОТРУДНИЧЕСТВА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

В данной статье отражен анализ новых направлений, новых подходов, инициатив, а также их результатов и эффективности во внешней политике Нового Узбекистана в период с 2017 по 2025 год. Раскрываются первоначальные цели и задачи консультативных встреч и собраний - совершенно новой формы дипломатии и взаимодействия в Центральноазиатском регионе. Наш Президент Ш.М. Мирзиёева Политика политического равенства, стабильности и добрососедства, реализуемая под руководством Мирзиёева, проводится не только с точки зрения Центральной Азии, но и с учетом недостатков соседних регионов.

Ключевые слова: Консультативная встреча, БРИКС плюс, Геополитика, ООН, ОБСЕ, ЕС, СНГ, "душа Центральной Азии", "узбекская модель", "синхронное развитие", "Казахстанская модель".

MARKAZIY OSIYO O'ZARO HAMKORLIKNI YANGI ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada 2017-2025 yillar oralig'ida Yangi O'zbekistondagi tashqi siyosatidagi yangi yo'nalishlar, yangicha yondoshuvlar, tashabbuslar va ularning natijalari va samarasi tahlili aks etgan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi diplomatiya va o'zaro muloqotning tamomila yangi shakli bo'lgan Maslahat uchrashuvlarining asl maqsad va vazifalari ochib berilgan. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilayotgan siyosiy tenglik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik siyosati nafaqat Markaziy Osiyo nuqtai nazaridan, balki qo'shni mintaqalar manfaatlarini hisobga olgan holda olib borilmoqda.

Kalit so'zlar: Maslahat uchrashuvi, BRIKS plus, Geosiyosat, BMT, YeXHT, YeI, MDH, "Markaziy Osiyo ruhi", "O'zbek modeli", "sinxron rivojlanish", "Qozog'iston modeli".

Kirish. Hozirgi kunda jahon mamlakatlarining tashqi siyosatida geosiyosiy ziddiyatlar, xavfsizlik masalalari, iqtisodiy tahdidlar, kibberxavfsizlik, oziq ovqat xavfsizligi, migratsiya muammolari kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "BRIKS plus" formatidagi sammitda "Afsuski, bugungi kunda dunyo jadal bo'linib bormoqda. Insonlarga ulkan azob-uqubatlar, og'ir iztirob va o'rmini to'ldirib bo'lmaydigan yo'qotishlar keltirayotgan urush va mojarolar soni ortmoqda. Jahon iqtisodiyoti va savdosining parchalanib borayotgani tengsizlik, texnologik uzilishlar va proteksionizmni kuchaytirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatlar o'rtasida yangi to'siqlar vujudga kelmoqda"- deb ta'kidlaganda aynan mana shu masalalarni nazarda tutgan[1]. Jahon hamjamiyati oldidagi geosiyosiy ziddiyatlar, xavfsizlik muammolari, yirik mintaqaviy mojarolar barchasi barqaror taraqqiyotga nisbatan ijtimoiy va iqtisodiy tahdidlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Dunyo mamlakatlari o'rtasida bir biriga bo'lgan o'zaro ishonch va do'stlik munosabatlarining o'rni ishonchsizlik egallamoqda, nizoli muammolar tufayli bloklarga bo'linish g'oyalari kuchayib bormoqda. Dunyoda

nufuzli deb tan olingan BMT, YeXHT, YeI, MDH kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning mavqei pasayib bormoqda.

Shuningdek, bugun Markaziy Osiyo duch kelayotgan zamonaviy tahdidlar va nizolarning oldini olishning yagona yo'li mintaq mamlakatlari o'rtasida ishonch va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, keng ko'lamli hamkorlik va madaniy aloqalari kengaytirishdir.

Hech bir mintaq keng miqyosdagi xalqaro hamkorlikni, mintaqaviy integratsiya, o'zaro ishonch g'oyalari asoslangan tashqi siyosat prinsiplarini yaratmas ekan bu qadar murakkab masalalarni mustaqil holda hal eta olmaydi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab mintaq davlatlari o'zining tashqi siyosatini yaratish bilan birga mintaq xalqlarining o'zaro ishonch va do'stlik rishtalariga asoslangan integratsion prinsiplariga zaminni tayyorlab borishdi.

Mintaqada dastlab mavjud bo'lgan muammolarning turlari va ko'rinishlari xilma xilliga tufayli Markaziy Osiyo zaminida mustaqil taraqqiyotning dastlabki yillarida davlatlar o'rtasida ishonchsizlik, bir-biridan hadiksirash munosabatlari yuqori edi. Markaziy Osiyo davlatlari o'zining madaniy tarixiy boy tajribasi va o'z milliy ananalariga, tajribasiga asoslangan, ulardagi ijobiy, konstruktiv tomonlarni o'zlashtirgan holda, mintaqamiz xalqlarining mentaliteti, turmush tarzi, orzu -

tilaklari bilan uyg'unlashtirilgan holda Tojikiston Respublikasining "milliy hamjihatlik", Turkmaniston Respublikasining "pozitiv betaraflik", O'zbekiston Respublikasining "O'zbek modeli", Qirg'iziston Respublikasining "sinxron rivojlanish", Qozog'iston Respublikasining "Qozog'iston modeli" milliy taraqqiyot modellari shakllantirdi.

Shu tariqa Yangi O'zbekiston yangi strategiyasida dunyo siyosiy axliga yangicha siyosiy rux va o'zaro ishonch prinsiplariga tayangan xolda tashqi siyosat asoslarini taklif etmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligidagi taklif etilayotgan siyosiy tenglik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik siyosati faqatgina Markaziy Osiyo nuqtai nazaridan emas balki butun yon qo'shni mintaqalar manfaatlarini hisobga olgan xolda olib borilmoqda. Yangi O'zbekiston tashqi siyosatida, dunyodagi olis va yaqin davlatlar bilan do'stona hamkorlik aloqalarining rivojlantirishga aloxida e'tibor berilmoqda. "O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy konsepsiyasi takomillashmoqda. Dunyoda Yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va hamkorlikning yangi qirralari ochilmoqda"[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimiz yangilanish davriga qadam qo'ygan birinchi kunlardan boshlab ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat yuritish, dunyodagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar, ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan yaqin do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. O'zbekiston o'tgan davrda ana shu strategik yo'lga doimo sodiq qolib, o'z sheriklari hamda xalqaro tashkilotlar oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarib kelmoqda. Mintaqadagi yoki dunyodagi nizo xamda muammolarni umumiy siyosiy va xuquqiy prinsiplarga asoslanib hal etish yo'llarini taklif etmoqda. Amalga oshirilgan ishlar natijasida, "Birinchi navbatda, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarimizda yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar hal etildi. Chegaralar ochildi. Qo'shni – qo'shnisi bilan, aka – ukasi, ota – bolasi, qarindosh – qarindoshi bilan uzilib qolgan aloqalarni tiklab, bir mamlakatdan ikkinchi davlatga emin-erkin borib kela boshladi. Viza masalalari hal etildi. Savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarimiz jadal rivojlanmoqda.

Azal-azaldan o'zaro qardosh va birodar bo'lgan mamlakatlarimiz ko'pgina mintaqaviy va global masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha yaqin hamkorlikda harakat qilishni boshladi. Jahon siyosatshunosligida "Markaziy Osiyo ruhi" degan ibora paydo bo'ldi"[3].

Bugungi tashqi siyosatda Markaziy Osiyoga ustuvorlik berilayotganini ilg'ash mushkul emas. Bu — har tomonlama chuqur o'ylab tanlangan yo'l, deb hisoblaymiz. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ushbu mintaqaga barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylanishi tarafdori va tashabbuskori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari — bizning bevosita qo'shnilarimiz bilan do'stona, yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo'nalish sifatida belgilab berdi.

Tarixan qisqa vaqtda O'zbekistonning mintaqadagi barcha davlatlar bilan munosabatlari tubdan yaxshilandi. Mintaqa rahbarlari o'rtasida ochiq va ishonchli siyosiy muloqotning mustahkamlanishi natijasida mintaqadagi qo'shnilar bilan munosabatlarda 2016-yilgacha mavjud bo'lgan barcha mintaqaviy va milliy, millatlararo nizo va muammolar chegara va suv muammosi to'liq o'zaro kelishuv asosida tinch yo'l bilan xal etildi. Markaziy Osiyoda siyosiy-diplomatik, iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni yo'lga qo'yish borasidagi yondashuvlaridagi o'zgarishlar nafaqat O'zbekistonning qo'shnilar bilan davlatlararo munosabatlarini tubdan yaxshilash uchun sharoit yaratdi, balki Markaziy

Osiyoning yangi formatda yanada jipslashishi va integratsiyalashuviga zamin bo'ldi.

Shu ma'noda, Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini yo'lga qo'yilishi butun mintaqacha uchun o'ta muhim voqea bo'lib, bugungi kunda barqarorlik, xavfsizlik va izchil taraqqiyot hududini birgalikda barpo etishga qaratilgan mintaqaviy muloqotning samarali shakliga aylandi. Prezidentlar o'rtasidagi o'zaro xurmat, ishonch va do'stlik aloqalari mustahkamlandi.

Ta'kidlash o'rinliki, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini o'tkazish tashabbusi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi. Ushbu muloqotning birinchisi 2018-yil 15-mart kuni Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tdi. Bunday uchrashuvni muntazam o'tkazish va mintaqaviy muammolarimizni birgalikda hal etish O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusini mintaqada davlat raxbarlari qo'llab quvatlashdi. Prezidentimiz Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini har yili Navro'z bayrami arafasida o'tkazishni, navbatdagi uchrashuvni kelgusi yili Toshkentda tashkil etishni taklif qildi. Ikkinchisi 2019-yil 29-noyabr kuni Toshkent shahrida o'tkazildi. Ammo koronavirus pandemiyasi avj olishi tufayli 2020-yilgi uchrashuv ortga surilib, 2021-yil 6-avgust kuni Turkmanistonning "Avaza" milliy turizm zonasida tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida umumiy siyosiy iroda va birgalikdagi sa'y-harakatlar natijasida bugun mintaqamiz yaxshi qo'shnichilik, o'zaro manfaatli hamkorlik va barqaror taraqqiyot makoniga aylanib borayotganini ta'kidladi. O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyoning madaniy merosiga bag'ishlangan festivallari, madaniyat va kino kunlarini o'tkazish, birgalikda kitoblari nashr qilish muhim ekanini ta'kidladi.

Tahlil va natijalar. Xalqlarimizni yaqinlashtirishga xizmat qiladigan yana bir omil bu — turizm sohasi. Mintaqa ichida sayyohlar almashinuvini ko'paytirish uchun qo'shimcha rag'batlardan faol foydalanish muhimdir.

Davlatimiz rahbari turizm xizmatlarining butun doirasini qamrab oladigan "Bir sayohat — butun mintaqacha" qo'shma dasturini amaliy ro'yobga chiqarish taklifini ilgari surdi.

2022-yil 21-iyul kuni Cho'lponotada Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to'rtinchi Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tgan bo'lib o'tdi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ushbu sammitda ishtirok etishning asosiy maqsadlari mintaqada iqtisodiy savdo-munosabatlarni rivojlantirish, ekologik muommolarga e'tibor qaratish va mintaqadagi tinchlikni saqlash asosiy vazifalar sifatida qaraldi. Shuningdek mintaqada mintaqaviy xavfsizlik, axborot va internet olami xavfsizligi, Afg'oniston muommosi, savdo-sanoat, madaniy aloqalar muhokama qilindi. Ushbu uchrashuvda quyidagi masalalar muxokama qilindi;

Markaziy Osiyodagi ekologik muommolarga e'tibor qaratish

Sammitda qo'shni Afg'onistondagi muommolar ham muhokama qilindi

Va mintaqacha raxbarlari birgalikda quyidagi takliflarni kiritishdi.

Ekologik muommolarga e'tibor qaratish taklif etildi. Logistika sohasini yanada isloh qilish va Janubiy osiyoga olib chiquvchi logistik yo'llar tashkil etish.

Mintaqada turizmni yanada rivojlantirish taklif etildi.

2023-yil 13-14 sentyabrda Dushanbe shahrida beshinchi Maslahat uchrashuvining o'tkazildi va unda oldingi uchrashuvlarda ilgari surilgan tashabbuslar o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnihilik va sherikchilikka asoslangan munosabatlarimizni mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kuchaytirish yo'lidagi intilishlarimizni namoyon etgan samimiylilik va do'stona ruxda bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 5-Maslahat uchrashuvidagi nutqida

“Umumiy sa'y-harakatlarimiz tufayli hayotiy muhim masalalarni hal etish va hamkorligimizni sifat jihatidan yangi mazmun bilan to'ldirish borasida jiddiy oldinga siljishga erishdik.

Bizning siyosiy muloqotlarimiz va parlamentlararo almashuvlar doimiy tus olmoqda. Muloqot va hamkorlik uchun turli platformalar ishga tushirildi. Shu kunlarda Dushanbeda an'anaga aylangan yetakchi ayollar, rektorlar, yoshlar uchrashuvlari, iqtisodiy forum va ko'rgazmalar, bir qator madaniy-gumanitar tadbirlar muvaffaqiyatli o'tmoqda. Bugungi uchrashuvimiz natijalari mamlakatlarimiz o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnihilik va strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga, keng miqyosdagi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, deb ishonch bildiraman.” dedilar o'z nutqlarida

2024-yilning 9-avgust kuni Ostona shahrida oltinchi Maslahat uchrashuvlari bo'lib o'tdi. 2025-yilning 5-avgustida Toshkent shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi o'tkazildi. Ushbu formatda yo'lga qo'yilgan muloqot tufayli mintaqada do'stlik va yaxshi

qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlashga, Markaziy Osiyoda yangi konstruktiv hamkorlik muhitini yaratishga erishildi.

Mazkur uchrashuvlar doimiy muloqot maydoniga asos soldi, mintaqada xavfsizlik, barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining O'zbekistonga tashriflari esa ko'p tomonlama hamkorlik poydevorini yanada mustahkamladi hamda iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik yo'nalishlarini kengaytirdi.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston yuritayotgan ochiq va o'zaro manfaatli hamkorlik siyosati Markaziy Osiyo mamlakatlarida qo'llab-quvvatlanmoqda. Qo'shni davlatlar O'zbekistonning ishonch va yaqin qo'shnihilik muhitini yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlarini yuqori baholamoqda, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqani barqaror, xavfsiz, hamkorlikda gullab-yashnagan makonga aylantirishga tayyorliklarini izhor qilmoqda. Yangi O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatda eng ilg'or davlat sifatida shakllanib nafaqat siyosiy jarayonlarda qolaversa gumanitar va madaniy hamkorlik borasida xam mintaqadagi tashabbuskor, tinchliksevar davlatga aylanib bormoqda. Bunga isboti o'laroq birgina 2017-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida olib borayotgan oqilona siyosatida juda ko'p yutuqlarga erishdi. Hozirgi tahlilali zamonda hamkorlik va yaxshi qo'shnihilik siyosatining asoschisi va arxitektori deb tan olinayotgan Yangi O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan tashqi siyosatda Markaziy Osiyo kelajagi va yangi tarixiy burulish davrini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 458- b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017 y. 1-jild. – 592- b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faolyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: O'zbekiston, 2017 y. 2-jild. – 592- b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi xam ulug', xayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: O'zbekiston, 2019 y. 3-jild. – 396- b.
5. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. – T.: O'zbekiston, 2019 y. 4-jild. – 4-jild. 452- b.
6. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017 y. – 488- b.
7. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017 y. – 48- b.